

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

OTAJONOVA MAFTUNA SULTONMURODOVNA

**UMUMTA‘LIM MUASSASALARINING TARBIYA JARAYONIDA
O‘QUVCHILARNING ALTRUISTIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Otajonova Maftuna Sultonmurodovna

Umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish..... 3

Отажонова Мафтуна Султонмуродовна

Развитие альтруистических компетенций учащихся в воспитательном процессе общеобразовательных учреждений 24

Otajonova Maftuna Sultonmurodovna

Development of students' altruistic competencies in the educational process of general education institutions..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

OTAJONOVA MAFTUNA SULTONMURODOVNA

**UMUMTA’LIM MUASSASALARINING TARBIYA JARAYONIDA
O‘QUVCHILARNING ALTRUISTIK KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.PhD/Ped9009 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.vocedu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umaraliyeva Muxayyo Abdugaparovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Bozorova Muslima Qodirovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Akramova Gulbahor Renatovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Ped.132.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" dekabr soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy. Tel.: (998) 73-542-38-38; faks: (998) 69-542-11-43; e-mail: kokandsu.edu@gmail.com.)

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (25 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo'qon shahri, Turon ko'chasi 23-uy. Tel.: (998) 73-542-38-38.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "25 noyabr" kuni tarqatildi.
(2025-yil "20" 16 dagi "10" - raqamli reestr bayonnomasi).



N.Sh. Erkaboyeva
N.Sh. Erkaboyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

L.R. Xaitov

L.R. Xaitov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.R. Kadirova

M.R. Kadirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida insoniyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri – yosh avlodni ijtimoiy mas'uliyatli, mehr-shafqatli va boshqalarga foyda keltirishga intiluvchi shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. XXI asr ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda insonparvarlik, empatiya, hamkorlik va altruistik kompetensiyalarni shakllantirishni ham o'z oldiga strategik maqsad qilib qo'yimoqda. Jahon miqyosida, UNESCO, UNICEF, OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan "Education for Global Citizenship", "Learning to Live Together" va "Social and Emotional Learning (SEL)" kabi yondashuvlarda altruizm, ijtimoiy hamkorlik, o'zaro hurmat va birdamlik tamoyillari ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda¹. Xususan, UNESCO'ning "Global Education Monitoring Report 2023" hisobotida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni shakllantirish barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan².

Xorijiy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shaxsda empatiya, o'zaro yordam va ijtimoiy javobgarlik kabi fazilatlarining shakllanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan³. Biroq ushbu nazariyalar asosan g'arb jamiyatlarining psixologik modeli asosida yaratilgan bo'lib, ularni to'liq tarzda milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zaruriyati mavjud. Shu sababli, har bir mamlakat, jumladan, O'zbekiston uchun ham altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishda milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga tayangan holda pedagogik model ishlab chiqish ilmiy zaruratga aylangan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik burchini anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalash jarayoni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi insoniy qadriyatlar tizimida keskin o'zgarishlar, shuningdek, individualizm va raqobatning kuchayishi, ijtimoiy hamjihatlik hamda o'zaro yordam tamoyillarining nisbatan zaiflashuvi bilan tavsiflanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimi oldiga o'quvchilar shaxsida altruistik kompetensiyalarni – boshqalar manfaati uchun harakat qilish, hamdardlik, g'amxo'rlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish kabi fazilatlarini rivojlantirish vazifasini qo'yimoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugungi yoshlar zamon o'zgarishlarini hammadan ko'proq his etadilar, biroq ular zamonaviylik bilan bir qatorda milliy o'zligini unutmasligi, kimligi va ajdodlari merosiga sodiq qolishi zarur⁴. Bunga esa,

¹ OECD. Social and emotional learning for 21st century skills. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 98 p., UNICEF. Learning to Live Together: Education Policies in Practice. – New York: UNICEF, 2021. – 74 p.

² UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Social and Emotional Learning for Sustainable Futures. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 210 p.

³ Noddings N. Caring: A Feminine Approach to Ethics and Moral Education. – Berkeley: University of California Press, 2003. – 256 p., Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ / D. Goleman. – London: Bloomsbury Publishing PLC, 2020. – 352 p. – ISBN 978-1-5266-3362-0., Michalová T., Maršiková K., Falát L., Madzík P. Altruistic leadership and its role in reducing knowledge hiding: the mediating effects of team learning and knowledge culture // Journal of Innovation & Knowledge. – 2024. – DOI: 10.1016/j.jik.2024.100592.

⁴ Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyun dagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjuman nuqti. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963> (murojaat qilingan sana: 2024.06.11)

avvalo, tarbiya tizimining samaradorligi hisobiga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni, boshqalar farovonligi uchun harakat qilish motivlarini, empatiya va hamjihatlik tuyg'ularini shakllantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son, 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2022-yil 11-maydagi 2022 – 2026-yillarda "Maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son, 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmonlari, 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kompetentlik tushunchasi va uning pedagogik jarayondagi o'ziga xosligi, ilmiy-nazariy asoslari bir qator olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, bu boradagi izlanishlarda kompetentlikning ta'lim sifatini oshirishdagi roli va o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, B.X.Xodjayev, G.O.Ochilova, S.Sh.Akbarova, A.U.Xushmurodova, N.A.Muslimov, G.O. Ernazarova, O.T. Isroilov, M.E. Qurbonova, T.U.Jo'rayeva, Sh.S.Sharipov kabi tadqiqotchilar tomonidan kompetentlik konsepsiyasining mazmuni, uning tarkibiy tuzilmasi, shakllanish bosqichlari va ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Bu tadqiqotlarda kompetentlik yondashuvining nazariy asoslari, uning metodologik jihatlari hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yoritilgan.

Shu bilan birga, altruistik kompetensiya va pedagogik altruizm masalalari ham zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari doirasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar obyekti bo'lib kelmoqda. Xususan, mazkur yo'nalishda H.Abdusalomov, D.Amriddinov, A.Egamberdiyeva, M.Jumaniyazeva, X.Muhammedova, I.Nurmatova, D.Talabova, N.Tog'ayeva, M.Xushnazarova, Sh.Yuvashev, S.Yusupov kabi

respublika olimlari tomonidan o'quvchilarda altruistik qadriyatlarni shakllantirish, pedagogik jarayonda altruistik kompetensiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, shuningdek, pedagogik altruizmning shaxs taraqqiyotidagi o'rni va axloqiy-ijtimoiy funksiyalari chuqur tadqiq etilgan.

MDH davlatlari olimlari E.P.II'in, L.N.Antilogova, V.N.Burkova, M.L.Butovskaya, I.V.Mangutova, G.A.Mironova, A.A.Moiseyeva, N.Y.Rajina, V.M.Simonov, S.A.Filyushin, V.N.Sadanova o'z ilmiy ishlarida altruizmning mohiyati, uning shaxs rivojlanishidagi o'rni va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini tahlil qilganlar. Tadqiqotlar altruizmi insonning axloqiy fazilati sifatida talqin qilish, shuningdek, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi ahamiyatini yoritish bilan bog'liq. O'quvchilarning altruistik kompetensiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar K.A.Abulxanova-Slavskaya, L.B.Berberova, M.L.Butovskaya, Y.I.Adam, N.L.Antonova, M.N.Rasxodchikov, M.E.Sachkovalar tomonidan amalga oshirilgan.

Xorijiy olimlardan S.I.Hammond, V.A.Benassi, A.P.Goldstein, U.Kuswendi, M.May, V.S.Muxina, E. McGinnis, N.Nodding, Peckman, J.Piaget, R.Dolan, B.Seymour, W.Yoshida, O.M.Lourenco, M.S.Uotson, S.G.Yakobson, D.I.Feldshteynlar altruizmi pedagogik faoliyatning ijtimoiy yo'nalishi sifatida o'rganib, uning ijtimoiy va hissiy kompetensiyalar, yordamga bo'lgan munosabat, fidokorlik va ustoz-shogird tizimidagi ahamiyatini tahlil qilganlar.

Shunday qilib, muammoning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, altruistik kompetensiyaning nazariy va amaliy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning pedagogik jarayondagi ahamiyati, ayniqsa, o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari va metodologik yondashuvlarni tizimli o'rganish talab etiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qo'qon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi TY-01-raqamli "Innovatsiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishning muammo va yechimlari (2017-2030-yy.)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan tarbiya jarayonlarini nazariy va empirik o'rganish va takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlashtirish;

o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning tarbiyaviy-funksional modelini ishlab chiqish;

tarbiya jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

tarbiya jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni olindi.

Tadqiqotning predmeti o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod, vositalari va texnologiyalari.

Tadqiqotning usullari. Pedagogik kuzatish, suhbat, tajriba-sinov va uning natijalarini tahlil qilish, tadqiqot natijalarini matematik statistika metodi asosida qayta ishlash hamda umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari tarbiya jarayonini deontologik tashkil etishga qaratilgan beg'araz ko'mak, ijtimoiy faollik tamoyillarini pedagogik ta'sir muhitini barqarorlashtirish uchun psixologik muvofiqlik ustuvorligida empatik kontekstda kiritish asosida aniqlashtirilgan;

o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning tarbiyaviy-funksional modeli axloqiy me'yorga asoslangan mezonlarni subyektiv ehtiyojlarga yo'naltirilgan adaptiv, konstruktiv darajalar bilan tayanch kompetensiyalar integratsiyasi tashkil etilgan muhitda optimallashtirishni autoanaliz ustuvorligida ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

tarbiya jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari gorizontal (erkin va shaxsiy) va vertikal (ma'muriy) kontaktlarni o'rnatishga motivatsiyalovchi ijtimoiy-ma'rifiy bahs modellarini perseptiv va interaksion aloqa funksiyalari mazmuniga avtomatik harakatlar dinamikasida kiritish asosida takomillashtirilgan;

tarbiya jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik ta'minoti shaxsiy manfaatlarisiz o'zgalarga yordam berishning tarbiyaviy mohiyatini ochib beruvchi antiegoizm o'quv topshiriqlarini sinfdan tashqari tadbirlar mazmuniga qisqa intervalli treninglar shaklida volontyorlik ustuvorligida singdirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni va xususiyatlari aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirish xususiyatlari va ularning integrativ xossalari aniqlashtirish asosida ularning altruistik kompetentligini rivojlantirishga tayyorlash tizimi takomillashtirilgan;

o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirishning tarbiyaviy funksional modeli takomillashtirilgan;

o'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'quvchilarning altruistik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar asosida qiyosiy-tahliliy yondashuvda chuqur o'rganilgan. Tadqiqot mazmuni va asosiy yo'nalishlari puxta nazariy asoslar bilan mustahkamlangan bo'lib, yig'ilgan ma'lumotlarning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligi kompleks tahlil va manbalarni tanlashning metodologik aniqligi orqali ta'minlangan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or nazariy yondashuvlar, konseptual qarashlar hamda amaliyotga tadbiriq etishga qaratilgan ilmiy-metodik ko'rsatmalar va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotning obyekti va predmeti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda aniqlik bilan belgilangan bo'lib, qo'yilgan vazifalar mazmunan aniq, maqsadga yo'naltirilgan holda formulalangan.

Tadqiqot doirasida ilgari surilgan asosiy ilmiy g'oyalar pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish orqali empirik tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, ular samaradorligining isboti eksperimental tahlillar natijalari orqali ilmiy asosda tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik asoslar, samarali metodik yondashuvlar hamda tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Mazkur yondashuvlar orqali o'quvchilarda insonparvarlik, o'zaro yordam, ijtimoiy mas'uliyat kabi altruistik sifatlarni shakllantirish jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi yangi pedagogik yechimlar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular umumta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirishda, xususan, "Tarbiya nazariyasi va metodikasi", "Ijtimoiy pedagogika", "Psixologiya" kabi fanlar mazmunini boyitishda, shuningdek, o'quvchilarda ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarni ishlab chiqishda samarali qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarida, maktab psixologlari, sinf rahbarlari, tarbiyachilar hamda metodistlar uchun amaliy-metodik qo'llanma sifatida qo'llash imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuvlar umumta'lim maktablarining tarbiya jarayonida altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tizimli, ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari tarbiya jarayonini deontologik tamoyillar asosida tashkil etish, beg'araz ko'mak va ijtimoiy faollikni empatik va psixologik muvofiqlik sharoitiga uyg'unlashtirishga doir takliflari "Altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi "258"-son buyrug'i asosida berilgan №393989 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada tarbiya jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish samardorligi oshgan;

o'quv mashg'ulotlarida altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning tarbiyaviy jihatlari beg'araz ko'mak, ijtimoiy faollik tamoyillarini pedagogik ta'sir muhitini barqarorlashtirish uchun belgilangan psixologik omillari empatik kontekstini belgilashga doir tavsiyalaridan 2020-2022-yillarda bajarilgan S-ECAGD-18-CA-0067 (P020002335) raqamli "FY-18 English Access Microscholarship program" nomli Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim va madaniy ishlar byurosi bilan hamkorlikdagi xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Qo'qon davlat universitetining 2025 - yil 12-may № 139/04-son ma'lumotnomasi) Natijada o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari aniqlashtirilgan;

o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirishning tarbiyaviy-funksional modeli axloqiy me'yorga asoslangan mezonlarni subektiv ehtiyojlarga

yo'naltirilgan adaptiv, konstruktiv darajalar bilan tayanch kompetensiyalar integratsiyasi optimallashtirishni autoanaliz qilish doir tavsiyalaridan "Altruizm amaliyotida" mavzusidagi ma'naviy-tarbiyaviy platformadan maktablarda tajribasinoz ishlarida amaliy dastur sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrda 02.05.2025-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan №DGU 50334 raqamli guvohnomasi). Natijada o'quvchilarda shaxslar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni altruistik kompetensiyaga tayangan holda tashkil qilishga doir bilim, malaka va kompetensiyalari rivojlangan;

tarbiya jarayonida o'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari gorizont va vertikal kontaktlarni o'rnatishga motivatsiyalovchi ijtimoiy-ma'rifiy bahs modellarini persektiv va interaksion aloqa funksiyalari mazmuniga avtomatik harakatlar dinamikasiga doir takliflari Altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi "258"-son buyrug'i asosida berilgan №393989 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasining gorizont va vertikal kontaktlarni o'rnatishga motivatsiyalovchi ijtimoiy-ma'rifiy bahs modellarini persektiv va interaksion aloqa funksiyalari takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida pedagogik adabiyotlarda altruizmning mohiyati va mazmuni, o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini kompetentli yondashuv asosida rivojlantirish, umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyasining mazmun-mohiyati va tuzilishining ilmiy asoslari tadqiq etilgan.

Altruizm (*lot. alter – boshqa*) shaxsning qadriyat yo‘nalishlari tizimi bo‘lib, unda asosiy motiv va axloqiy baholash mezonini boshqa shaxs yoki ijtimoiy jamoaning manfaatlarini ustuvor qo‘yishga asoslanadi⁵. Bu tushuncha insonning beg‘araz yordam ko‘rsatishga bo‘lgan intilishi, ijtimoiy birdamlik tamoyillariga asoslangan holda o‘zidan ko‘ra boshqalarning farovonligini afzal bilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur atama XIX asrda fransuz faylasufi O. Kont tomonidan muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, uning falsafiy va ijtimoiy ildizlari ancha qadimga borib taqaladi. Altruizm mazmunini ifodalovchi sifatlarni quyidagicha tushunish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. Altruizm mazmunini ifodalovchi sifatlari

Altruizm tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy-axloqiy hodisa bo‘lib, u nafaqat axloqshunoslik, balki falsafa, psixologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, hatto biologiya va neyropsixologiya fanlarida ham o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi⁶. Har bir fan altruistik harakatlarga o‘z epistemologik yondashuvini beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Altruizm tushunchasining fanlararo talqini⁷

Fan sohasi	Altruizmga yondashuv mazmuni
Falsafa	Etik prinsip sifatida qaraladi; insoniy mavjudotning mohiyatini belgilovchi asosiy g‘oya sifatida tahlil qilinadi ⁸ .
Psixologiya	Shaxsiy xulq, ichki motivatsiya va emotsional omillar bilan bog‘liq holda izohlanadi ⁹ .
Sotsiologiya	Ijtimoiy tizimlar, guruhlararo munosabatlar va kollektiv xulq-atvor kontekstida tushuntiriladi.
Huquq	Altruistik harakatlarning normativ-huquqiy asoslari, mas‘uliyat va ijtimoiy burch bilan bog‘liq.

⁵ Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. Научный словарь терминов, характеризующих мотивационную сферу личности – СПб.: Питер, 2002 – 512 с: ил. – (Серия «Мастера психологии») ISBN 5-272-00028-5. Стр. 242.

⁶ Batson, C.D. (2011). Altruism in Humans. Oxford University Press.

⁷ Jadval muallif tomonidan shakllantirildi

⁸ Chismar, D. (1988). "Empathy and sympathy: the important difference". The Journal of Value Inquiry, 22, pp. 257–266.

⁹ Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370.

Pedagogika	Tarbiya jarayonining asosiy qadriyatlaridan biri; ijtimoiy-pedagogik kompetensiya sifatida qaraladi ¹⁰ .
-------------------	---

Altruizm etikaning amaliy va me'yoriy jihatlarini o'z ichiga oluvchi konseptual kategoriya sifatida shakllangan bo'lib, u shaxsiy manfaatlarni emas, balki ijtimoiy manfaatlarni ustuvor qo'yish tamoyilini ifodalaydi. Bu tushuncha Sharq falsafasida “jo'mardlik” (futuvvat) deb nomlangan bo'lib, o'rta asrlarda tasavvufiy tariqatlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida rivojlangan. Xususan, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida jo'mardlik tushunchasi insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari targ'ib qiluvchi axloqiy-ma'naviy tamoyil sifatida izohlangan¹¹. Ushbu qadriyat musulmon Sharqida altruistik faoliyatning falsafiy asoslari sifatida qaralgan. Altruistik tamoyillar insoniyat tarixi davomida shaxsiy manfaatlardan voz kechib, jamiyat farovonligiga xizmat qilish g'oyasiga asoslangan holda rivojlangan. Jumladan, Pahlavon Mahmud milliy tariximizda altruizmning haqiqiy timsoli sifatida e'tirof etiladi¹².

Altruizm tushunchasi anglashda uning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi boshqa tushunchalarni ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Jumladan, “egosentrizm”, “eskapizm”, “daunshifting” tushunchalari altruizmning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizningcha tadqiqotimizning ilmiy asoslarini shakllantirishda K.Rojers, L.S.Vigotskiy, J.P.Piaget, J.Noddings va E.Y.Yermakova va V.A.Yermakovlarning qarashlari muhim ilmiy yondashuvlar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq. Ushbu olimlarning g'oyalari altruizmni ta'lim jarayonida rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va altruistik kompetensiyalarni shakllantirishda mustahkam ilmiy asoslarni namoyon etadi.

O'quvchilarning axloqiy va altruistik fazilatlarini rivojlantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ular insoniylik, fidokorlik, mas'uliyat, adolat, hurmat kabi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi.

Pedagogik altruizm – bu pedagogika va axloqiy tamoyillarga asoslangan holda amalga oshiriladigan altruistik faoliyat turi bo'lib, o'quvchilarning axloqiy me'yorlarga rioya qilishini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tushuncha o'quvchilarning faoliyat doirasida axloqiy javobgarlik tamoyillarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Pedagogik altruizm quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchining axloqiy me'yorlari – ta'lim jarayonida o'quvchining ijtimoiy va axloqiy tamoyillar asosida xatti-harakatlarini tartibga solish;
- mas'uliyat hissi – o'quvchilarning harakatlari oqibatlarini uchun javobgarlikni his qilishiga asoslangan pedagogik jarayon;
- hamdardlik va insonparvarlik – ijtimoiy munosabatlarda insonparvar yondashuvni shakllantirish;


¹⁰ Болотов, В.А., Сериков, В.В. (2003). Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе. Педагогика, №10.

¹¹ Husayn Voiz Koshifiy. “Futuvvatnomai sultoniy”. “Axloqi muhsiniy”. T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashri, 2011 y. - 374 b

¹² Aminov M.N. Tarbiya ensiklopediyasi T: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat milliy nashryoti. 2010 y. 20-bet


– fidokorlik va yordam berish tamoyillari – beg‘araz yordam berish orqali ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish.

O‘quvchining altruistik kompetensiyasi – bu o‘quvchi va tarbiya jarayonining bog‘liqligini ta‘minlaydigan qadriyat me‘yorlari va ko‘rinishlarining namoyonidir. Ushbu yondashuv quyidagi sxemada ko‘rsatilgan (2-rasmga qarang).



2-rasm. O‘quvchining altruistik kompetensiyasining “O‘quvchi – tarbiya jarayoni” munosabatlari tizimidagi o‘rni

O‘quvchining altruistik kompetensiyasi va uning umumiy madaniyati o‘rtasidagi munosabatlar sxematik tarzda ifodalanishi mumkin (3-rasmga qarang).



3-rasm. O‘quvchining umumiy va altruistik madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqliklarning xususiyatlari

Altruistik kompetensiya o‘quvchining asosiy, bog‘lovchi va rivojlanishini belgilovchi sohalardan biridir. Altruistik kompetensiya quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi: fidokorlik qobiliyati, jamoaviy faoliyatda hamkorlik qilish qobiliyati; jamoada samarali ishlash qobiliyati; psixologik muvofiqlik o‘quvchilarning yosh belgilarga moslashish qobiliyati sifatida; gorizont va vertikal aloqalarni o‘rnatish qobiliyati; boshqalarning ishiga samimiy hurmat; ta‘lim jarayoniga moslashish qobiliyati, boshqalarni tushunish, idrok etish, bag‘rikenglik; nizolarni hal qilish qobiliyati; ishni tashkil qilish qobiliyati.


Ushbu qoidalarni hisobga olgan holda, o‘quvchining asosiy muhim fazilatlarini, shu jumladan shaxsning asosiy altruistik fazilatlarini aniqlash mumkin (2-jadvalga qarang).

2-jadval

O'quvchining muhim fazilatlari, ularning faoliyatining altruistik jihatlar¹³

Muhim fazilatlar komponentlari	Muhim fazilatlarining xususiyatlari
Anatomik va fiziologik komponent	Oddiy qo'zg'aluvchanlik, kuch, asab tizimining muvozanati, fikrlashning amaliyligi, pedagogik va psixologik me'yordan keskin og'ishlarning yo'qligi
Ijtimoiy-psixologik komponent	Samarali shaxslararo aloqalarni tashkil etish qobiliyati, masalaning mohiyatini chuqur o'rganish, kerakli ma'lumotlarni olish qobiliyati, boshqa odamlarning individual xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati, kasbiy vaziyatda asosiy narsani topish qobiliyati, muammoni hal qilish uchun safarbar qilish qobiliyati. qaror, odamlarni jalb qilish qobiliyati
Shaxsiy komponent (altruistik fazilatlar)	Insonparvarlik, o'quvchilarning yordam berishga munosabati bilan bog'liq fazilatlar, xulq-atvorni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va normalari bilan bog'liq fazilatlar

Umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosini tahlil qilish asnosida uni samarali hal etishga ko'maklashuvchi yondashuvlarni aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. (4-rasm.)



4-rasm. Umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali yondashuvlar

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni asoslash” deb nomlanadi. Ushbu bobda umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar ilmiy asosda tahlil qilinib, altruistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mazmun, metodlar, model va pedagogik shartlar chuqur tadqiq etilgan.

O'qituvchilar o'z o'quvchilaridan nafaqat asosli harakatlarni kutishadi, balki ular o'quvchining ishida ishonch keltiradigan, psixologik zo'riqishlarni yengillashtiradigan, quvnoq kayfiyatni oshiradigan shaxsiy fazilatlarining namoyon bo'lishini ko'rishni xohlashadi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya jarayoni o'quvchi

¹³ Tadqiqot muallifi tomonidan shakllantirilgan

vazifalarini avtomatik ravishda bajarishi, o'quvchilar bilan munosabatlarning yaxshilanishiga, ular bilan aloqalarning uzilmasligiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 25-avgustdagi №308-buyrug'iga ¹⁴ asosan 2025-yildan boshlab umumta'lim maktablarda "Sinf soati" mashg'ulotlari o'rniga "Kelajak soati" darslarini joriy etish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. "Kelajak soati" darslarining asosiy maqsadi yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar, ijtimoiy faolligi yuqori shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bu darslar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki kundalik hayotiy faoliyatda zarur bo'ladigan ijtimoiy ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning tafakkurini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 25-avgustdagi № 308-buyrug'iga 4-ilova qilib maktablarda o'tiladigan "kelajak soati" darslarining rejasi keltirilgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval

"Kelajak soati" darslarining rejasi

№	Tadbir nomi	O'tkazish vaqti	Izoh
1.	Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun	3-sentabr	
2.	Bilim nima uchun kerak?	8-sentabr	
3.	Bizning xulqimiz	15-sentabr	
4.	Hosil bayrami	22-sentabr	
5.	O'qituvchi va murabbiylar kuni	29-sentabr	
6.	Gadjetlar va men	6-oktabr	
7.	Boqiy shaharlarimiz	13-oktabr	
8.	O'zbek tili bayrami kuni	20-oktabr	
9.	O'zbekiston va jahon	27-oktabr	
10.	Xavfsiz hayot	3-noyabr	
11.	O'zbekiston bayrog'i	17-noyabr	
12.	Biz zo'ravonlikka qarshimiz	24-noyabr	
13.	Mening huquqlarim	1-dekabr	
14.	Millat qo'shig'i	10-dekabr	
15.	Jadid bobolarimiz	15-dekabr	
16.	Men O'zbekistonlikman	22-dekabr	
17.	Mardlar qo'riqlaydi vatanni!	12-yanvar	
18.	Ma'naviyat, mehr va oqibat	19-yanvar	
19.	Muvaffaqiyat sirlari. Start-ap	26-yanvar	
20.	Sog'lom hayot	2-fevral	
21.	Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning buyukligi	9-fevral	
22.	Halollik vaksinasi	16-fevral	
23.	Bir yaxshilik haqida	23-fevral	
24.	Muqaddas ayol	2-mart	
25.	Mehnatning tagi rohat	9-mart	
26.	Yil boshi - Navro'z	16-mart	

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 25-avgustdagi №308-son buyrug'i

27.	O'zbek madaniyati	30-mart	
28.	Sohibqiron - Amir Temur	6-aprel	
29.	Kitobxonlik	13-aprel	
30.	Milliy o'zlik	20-aprel	
31.	Innovatsion fikrlash	27-aprel	
32.	Millat fidoyilari. Xotira va qadrlash	4-may	
33.	Mening oilam	11-may	
34.	Mening portfoliom	18-may	

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarorining 4-paragrifida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining kompetensiyalari belgilab berilgan (4-jadvalga qarang). O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

4-jadval

Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar¹⁵

№	Kompetensiya turlari	Vazifalari
1	Kommunikativ kompetensiya	ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
2	Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi	mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
3	O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi	doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.
4	Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi	jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
5	Milliy va umummadaniy kompetensiya	vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017 yildagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori. <https://lex.uz/docs/3153714>

6	Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi	aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
---	---	---

Zamonaviy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar va shaxsiy fazilatlar majmui sifatida kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari va tarbiya jarayonlari orqali bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonida shakllantiriladigan asosiy kompetensiyalarning ayrimlari – kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi hamda milliy va umummadaniy kompetensiyalar – o'quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash, jamiyatda faol ishtirok etish va o'z milliy madaniyati hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda altruistik kompetensiyalar – ya'ni o'quvchining o'zgalarga yordam berishga tayyorligi, hamdardlik, ijtimoiy mas'uliyat, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish va beg'araz yordam ko'rsatishga tayyorlik kabi fazilatlarini ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Altruistik kompetensiyalar, o'z mohiyatiga ko'ra, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

O'quvchilarda altruistik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun:

- jamoaviy ishlarga jalb etish va ularning ahamiyatini tushuntirish;
- darslarda empatiya va boshqalarni tushunishga yo'naltirilgan mashqlar o'tkazish;
- rag'batlantirish orqali altruistik xulq-atvorni qo'llab-quvvatlash.

Bugungi kunda o'quvchiga qo'yiladigan talablar ijtimoiy-madaniy sharoitlar va ta'lim jarayonining yagona tizimini rivojlantirish yo'nalishlari bilan belgilanadi.

O'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida etika va altruizmning aniq belgilangan va tasdiqlangan tamoyillariga asoslangan faoliyatning altruistik tamoyillari hisobga olinishi kerak (5-jadvalga qarang).

5-jadval

O'quvchilar faoliyatining altruistik tamoyillari¹⁶

O'quvchilar faoliyatning altruistik tamoyillari	Altruistik tamoyillarning xususiyatlari
Zarar yetkazmaslik tamoyili	Ushbu tamoyil ta'lim olayotgan o'quvchining farovonligi bilan bog'laydi. Shu bilan birga, farovonlik "hayot sifati"ning eng xilmaxil jihatlari yig'indisini o'z ichiga olgan ko'p tomonlama, ajralmas tushuncha sifatida ishlaydi. Ta'lim olish orqali o'quvchi nafaqat o'zining ahvoli va sog'lig'iga, balki undan ham muhimroq narsaga – uning o'zini o'zi his qilishiga, farovonligiga, hayot rejalarga, kelajakdagi hayotining uslubi va sifatiga ta'sir qiladi.
Yaxshilik qilish tamoyili	Ta'lim-tarbiya, farovonlik uchun mumkin bo'lgan maksimal variant haqida g'amxo'rlik qilish o'quvchining vazifasi sifatida talqin etiladi.

¹⁶ Tadqiqot muallifi tomonidan shakllantirilgan

	Agar zarar yetkazmaslik tamoyili qoida shaklida ifodalanishi mumkin bo'lsa, keyin farovonlik tamoyili uchta qoidada ifodalanishi kerak: "hech kim zarar va zarar yetkazmasligi kerak", "har kim yomonlik va zararning oldini olishi kerak", "hamma yomonlik va zarardan tiyilishi kerak" va "hamma yaxshilik qilishi va unga hissa qo'shishi kerak".
Shaxsiy avtonomiya tamoyili	Ushbu tamoyil o'quvchini pedagogik vaziyat va uning holati to'g'risida xabardor qilishni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarining prognozlarini hisobga olgan holda, unga mumkin bo'lgan xavf darajasini, kiruvchi natijalarni tushuntirishni, haqiqiy alternativlarni oshkor qilishni, qarorni o'zgartirish huquqini berishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, biz umumta'lim muassasalarining tarbiya jarayonida o'quvchilarning altruistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali metodlarni tanlashga ham alohida e'tibor qaratdik.

Fidokor o'quvchi metodi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlarida sinovdan o'tkazilib samaradorligi ta'minlangan metodlardan biri bu "Fidokor o'quvchi" metodi hisoblanadi. Metodning maqsadi umumta'lim maktabi o'quvchilarida umummanfaat yo'lida o'z manfaatlaridan voz kechish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Metodning mohiyati: vaziyatli topshiriqlar, amaliy faoliyatdagi muammoli vaziyalarda o'quvchilarning o'zini tutishini shakllantirish.

Metodning o'tkazish tartibi quyidagicha: 1-bosqich: tadqiqot mavzusi yuzasidan vaziyatli topshiriqlar, amaliy jarayonlarning mazmuni tanlab olinadi. 2-bosqich: Jamoaviy manfaatlar hamda shaxsiy manfaatning to'qnashuvi yuzasidan vaziyatli topshiriqlar taqdim etilib, o'quvchilarning hatti-harakatlari kuzatib boriladi. 3-bosqich: o'quvchilarning vaziyatli topshiriqlar yuzasidan bajargan harkatlari ular ishtirokida tahlil qilinadi. 4-bosqich: Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan korreksion ishlar olib boriladi.

Alturistik so'zlar metodi. Metodning maqsadi: umumta'lim maktabi o'quvchilarida alturistik kompetensiyaning mazmunini aks ettiruvchi tushunchalar bilan tanishtirish va ularning shaxsiy fikrlarini aniqlashtirishdan iborat. Tajriba-sinov ishi davrida mazkur metoddan foydalanish tartibi quyidagicha kechdi:

1-bosqich: Alturistik kompetensiya mazmunini ifodalovchi tushunchalarni 1-ustunga yozish va ularni muhimlik darajasiga ko'ra tartiblash.

2-bosqich: Ular yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bayon etish.

3-bosqich ushbu tushunchalarning manbalarda bayon etilishini yozish.

Topshiriq quyidagi tartibda bajarildi: talabalar kichik guruhlariga birlashtirildi; guruhlar tomonidan so'zlar mustaqil ravishda izohlandi; kichik guruhlarning yechimlari akademik jamoada muhokama qilindi; kichik guruhlar o'z yechimlarini lug'at, ensiklopediya va manbalar asosida qayta izohladi (6-jadvalga qarang):

6-jadval

Alturistik so'zlar metodi

Tushunchalar	Shaxsiy nuqtayi nazar	Ilmiy manbalardagi izohi
--------------	-----------------------	--------------------------

Fidokor	Shaxsning o'z shaxsiy manfaatlaridan jamiyat farovonligi, oila tinchligi hamda umumiy g'oyalarni ustuvor qo'yishi	“Millatning kelajagi uchun mehnatini ayamagan har bir yosh-fidokor farzanddir” (Abdulla Avloniy)
